

## SAMARQAND VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*2023-yilning asosiy  
yillik ma'lumoti*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Тел. 66-235-65-80*

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruvin qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

## Chakana savdo aylanmasining 2022-yilga nisbatan o'sish sur'ati, (foizda)

Yirik korxonalar



101,6 %



109,4 %

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



110,0 %

shu jumladan:  
Uyushmagan savdo

2024-yil 1-yanvar holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **12 573** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **42** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **12 531** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan

**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (2023-yil)

2




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasi o'laroq, 2023-yilda viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **30 196,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan **107,9 %** ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **5 488,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **101,6 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **24 708,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **109,4 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 581,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **110,0 %**) tashkil etdi.

	<b>Jami, mlrd. so'm</b>	<b>2022-yilga nisbatan, foizda</b>
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>30 196,5</b>	<b>107,9</b>
Samarqand sh.	10 628,1	110,5
Kattaqo'rg'on sh. tumanlar:	1 825,8	106,9
Oqdaryo	758,4	111,2
Bulung'ur	1 261,8	108,9
Jomboy	1 131,2	112,1
Ishtixon	1 071,1	109,5
Kattaqo'rg'on	1 359,0	83,8
Qo'shrabot	523,4	107,6
Narpay	969,5	108,8
Payariq	1 104,6	104,7
Pastdarg'om	1 682,0	104,6
Paxtachi	631,6	112,5
Samarqand	2 616,0	114,4
Nurobod	499,6	103,0
Urgut	3 251,2	105,6
Toyloq	883,2	116,9


2023-yilda 2022-yilga nisbatan viloyatning Toyloq (**116,9 %**), Samarqand (**114,4 %**), Paxtachi (**112,5 %**), Jomboy (**112,1 %**), Oqdaryo (**111,2 %**), Samarqand shahri (**110,5 %**), Ishtixon (**109,5 %**), Bulung'ur (**108,9 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (2023-yil)




So'nggi 5 yillikda (2019–2023-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yilning mos davriga nisbatan 114,2 % ni tashkil qildi.

## 2023-yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2023-yilda o'sish sur'ati **107,9 %** ni tashkil qildi.




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Samarqand shahrida **35,2 %** bilan **10 628,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Nurobod tumanida **1,7 %** bilan **499,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

*Hajmi, mlrd. so'm*





## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2023-yilda statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **24 708,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan **9,4 %** ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **81,8 %** ni tashkil etdi.

<b>109,3</b>	Oqdaryo
<b>109,6</b>	Ishtixon
<b>110,3</b>	Jomboy
<b>112,8</b>	Paxtachi
<b>117,1</b>	Toyloq
<b>123,7</b>	Samarqand sh.


## Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2022-yilga nisbatan **1,6 %** ga ko'paydi va **5 488,2** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **18,2 %** ulushiga to'g'ri keldi.

<b>109,8</b>	Toyloq
<b>110,1</b>	Urgut
<b>128,7</b>	Jomboy
<b>129,1</b>	Samarqand
<b>129,6</b>	Pastdarg'om
<b>3,1 m.</b>	Oqdaryo
<b>5,9 m.</b>	Kattaqo'rg'on



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda) (2023-yil)



Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kattaq'org'on shahri (**99,9 %**), Ishtixon (**99,4 %**), Payariq (**99,3 %**) va Narpay (**99,2 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi **18,2 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahri (**38,1 %**) va Samarqand (**39,7 %**), Jomboy (**11,2 %**), Kattaqo'rg'on (**4,3 %**) tumanlarida kuzatildi.

**18,2 %**



**81,8 %**



Yirik korxonalar



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




## Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda

Samarqand viloyati	7 252,8	Samarqand	9 685,2
Samarqand sh.	18 355,9	Nurobod	3 103,0
Kattaqo'rg'on sh.	19 381,9	Urgut	5 884,6
Oqdaryo	4 429,8	Toyloq	4 044,0
Bulung'ur	6 318,4		
Jomboy	6 042,6		
Ishtixon	3 923,5		
Kattaqo'rg'on	4 671,8		
Qo'shrabot	3 725,4		
Narpay	4 301,2		
Payariq	4 089,6		
Pastdarg'om	4 436,9		
Paxtachi	4 180,1		

2023-yil holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **7 252,8** ming so'mni (2022-yilga nisbatan **105,6 %**) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Kattaqo'rg'on shahri (**19 381,9** ming so'm), Samarqand shahri (**18 355,9** ming so'm) va Samarqand (**9 685,2** ming so'm), Bulung'ur (**6 318,4** ming so'm) va Jomboy (**6 042,6** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, (2023-yil), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari

**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2022-yilga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022-yilga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022-yilga nisbatan, foizda
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>2 581,2</b>	<b>110,0</b>	<b>1 047,6</b>	<b>140,8</b>	<b>1 533,6</b>	<b>95,7</b>
Samarqand sh.	194,5	135,3	186,5	136,0	8,0	121,4
Kattaqo'rg'on sh.	292,7	71,2	119,4	148,4	173,3	52,4
<i>tumanlar:</i>						
Oqdaryo	170,9	120,3	13,4	80,9	157,5	125,5
Bulung'ur	213,8	111,1	56,5	95,9	157,3	117,8
Jomboy	231,9	119,9	155,5	168,1	76,4	75,7
Ishtixon	212,0	143,1	104,5	3,0 m.	107,5	94,6
Kattaqo'rg'on	162,7	93,1	55,0	100,8	107,7	89,6
Qo'shrabot	126,4	111,6	25,6	175,0	100,8	102,2
Narpay	43,7	119,3	29,2	97,4	14,5	2,2 m.
Payariq	161,6	86,5	69,1	142,6	92,4	66,8
Pastdarg'om	99,4	89,6	9,7	57,2	89,7	95,4
Paxtachi	107,4	112,4	41,0	113,7	66,4	111,6
Samarqand	91,1	154,7	8,3	152,8	82,9	154,9
Nurobod	94,9	98,5	31,0	91,7	63,9	102,2
Urgut	148,6	118,6	91,5	167,3	57,1	80,9
Toyloq	229,6	197,4	51,4	176,8	178,2	2,0 m.


\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmag'an holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2023-yil)



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2023-yil)



Viloyat bo'yicha 2023-yilda uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 581,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan **110,0 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **1 047,6** mlrd. so'mni (**140,8 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **1 533,6** mlrd so'mni tashkil etdi (**95,7 %**).


2023-yilda viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **1 047,6 mlrd. so'mni** tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**475,5 mlrd. so'm**) to'g'ri keldi.

## Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga hajmi va ulushi

<b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b> <b>475,5 mlrd. so'm</b>  45,4 %	<b>Non va non mahsulotlari</b> <b>163,9 mlrd. so'm</b>  15,6 %	<b>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</b> <b>108,9 mlrd. so'm</b>  10,4 %
<b>Tovuq go'shti</b> <b>76,0 mlrd. so'm</b>  7,3 %	<b>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</b> <b>55,6 mlrd. so'm</b>  5,3 %	<b>Tuxum</b> <b>35,1 mlrd. so'm</b>  3,4 %
<b>Ziravorlar</b> <b>34,1 mlrd. so'm</b>  3,2 %	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> <b>30,4 mlrd. so'm</b>  2,9 %	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b> <b>12,3 mlrd. so'm</b>  1,2 %
<b>Tuzlamalar</b> <b>30,5 mlrd. so'm</b>  2,9 %	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> <b>4,3 mlrd. so'm</b>  0,4 %	<b>Nooziq-ovqat tovarlar</b> <b>21,0 mlrd. so'm</b>  2,0 %

2023-yilda, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **1 533,6 mlrd. so'mni** tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdag'i qoramollar savdosi **1 237,9 mlrd. so'm**, qo'y va echkilar **210,7 mlrd. so'mni**, otlar **76,3 mlrd. so'mni**, parrandalar **8,7 mlrd. so'mni** tashkil qildi.

### Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi



## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI (2023-yil)

2024-yil 1-yanvar holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalar soni **2 977** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **6** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2 971** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022-yilga nisbatan, foizda
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>1 224,6</b>	<b>116,8</b>
Samarqand sh.	619,3	114,5
Kattaqo'rg'on sh. tumanlar:	25,9	107,7
Oqdaryo	7,8	171,1
Bulung'ur	26,3	109,5
Jomboy	27,0	152,4
Ishtixon	7,5	124,3
Kattaqo'rg'on	14,3	105,9
Qo'shrabot	12,4	131,4
Narpay	14,3	119,2
Payariq	11,5	90,0
Pastdarg'om	82,4	87,3
Paxtachi	12,8	104,1
Samarqand	49,8	88,4
Nurobod	13,0	124,6
Urgut	25,4	85,9
Toyloq	274,9	152,5

2023-yilda ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **1 224,6** mlrd. so'mga yetdi. 2022-yilga nisbatan **16,8 %** ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 70,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi


(2023-yil)

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>2 874,6</b>	<b>100,0</b>
Samarqand sh.	2 444,3	85,0
Kattaqo'rg'on sh.	24,5	0,8
tumanlar:		
Oqdaryo	25,8	0,9
Bulung'ur	9,4	0,3
Jomboy	2,7	0,1
Ishtixon	13,8	0,5
Kattaqo'rg'on	11,4	0,4
Qo'shrabot	3,3	0,1
Narpay	12,2	0,4
Payariq	17,1	0,6
Pastdarg'om	7,8	0,3
Paxtachi	8,1	0,3
Samarqand	85,1	2,9
Nurobod	1,5	0,1
Urgut	4,7	0,2
Toyloq	202,9	7,1


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (**2 444,3** mlrd. so'm), Toyloq (**202,9** mlrd. so'm) va Samarqand (**85,1** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm) (2023-yil)




2023-yilda avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) **2 874,6** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **43,4 %** ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **432,5** mlrd. so'm (o'sish sur'ati – **111,5 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **2 442,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **151,0 %**) tashkil qildi.

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishslash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagи tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023-yilda ulgurji savdo tovar aylanmasi **20 690,4** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan **44,6 %** ga o‘sdi.

## Savdo aylanmasi va ulushi



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **13 679,3** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022-yilga nisbatan **124,4 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **66,1 %** ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMIVA O'SISH SUR'ATI (2023-yil)

2024-yil 1-yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **3 027** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **37** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2 990** tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida viloyatning Oqdaryo (**5,2 m.**), Kattaqo'g'on (**170,5 %**), Jomboy (**164,7 %**), Samarqand (**157,6 %**) tumanlarida va Samarqand shahrida (**147,3 %**) eng yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2022-yilga nisbatan, foizda
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>20 690,4</b>	<b>144,6</b>
Samarqand sh.	13 226,2	147,3
Kattaqo'rg'on sh.	431,0	105,8
tumanlar:		
Oqdaryo	591,1	5,2 m.
Bulung'ur	423,1	99,4
Jomboy	411,6	164,7
Ishtixon	164,3	129,5
Kattaqo'rg'on	472,7	170,5
Qo'shrabot	49,4	105,1
Narpay	215,5	111,1
Payariq	138,3	149,4
Pastdarg'om	811,5	134,4
Paxtachi	23,6	69,5
Samarqand	1 775,6	157,6
Nurobod	108,8	96,0
Urgut	709,9	97,0
Toyloq	1 137,8	144,9